

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUIJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Xurramova Saodat Xabibovna</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhammadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhruzoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 - YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Hazratali Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

PROBLEMS OF FORMING A CULTURE OF INFORMATION SECURITY AND MEDIA IMMUNITY OF YOUTH THROUGH EDUCATIONAL PROCESSES IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATIONS

Karimov Akramzhon Zainobidinovich

Tashkent State University of Law,
Acting Professor of the Department of General Educational Disciplines and Culture,
PhD in Physics and Mathematics, Associate Professor
E-mail: vomiraka@yandex.ru

Abstract. The article presents the results of a study of current problems of forming a culture of information security and media immunity of young people through educational processes in the context of digital transformations. In particular, the role and tasks of academic disciplines of the social and humanitarian educational direction in improving the culture of information security, forming and strengthening media immunity among young people were studied. Emphasizing that the problems associated with this topic are systemic, specific ways to solve them are proposed.

Keywords: digital transformation, information risks, information security, information security culture, media environment, media immunity.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Karimov Akramjon Zaynobidinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrası
professori v.b., f.-m.f.n., dotsent

Annotatsiya. Maqolada raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarning axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetini ta'lim jarayonlari orqali shakllantirishning dolzarb masalalari yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Xususan, ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishidagi o'quv fanlarining yoshlarimizda axborot xavfsizligi madaniyatini yuksaltirishdagi, mediaimmunitetni shakllantirish va mustahkamlashdagi o'rni va vazifalari o'rganilgan. Mavzuga oid muammolar tizimli ekani ta'kidlangani holda, ular uchun muayyan yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiyalar, axborot xavflari, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligi madaniyati, mediamuhit, mediaimmunitet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N87>

Kirish. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida asosiy e'tibor yoshlarning ijtimoiy faol vakillari bo'lmish talabalarning bo'lajak mutaxassisligiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qunt bilan sifatli egallashlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishga, keng imkoniyatlarni taqdim etishga qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, talabalarning ma'naviy-axloqiy kamoloti va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlarimizning tarix

saboqlaridan, davrning ijtimoiy-siyosiy hodisalaridan, mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlaridan voqifligi, turli tuman ta'sir va tahdidlardan ogohligi ulardagi axborot madaniyatining mustahkamlik sari shakllanayotganidan dalolatdir.

Shunga qaramay, yoshlarimizda axborot xavfsizligining mustahkam madaniyatini, xususan, axborot xavfsizligi immuniteti va mediaimmunitetni shakllantirish masalalari bugungi raqamli transformatsiyalar hamda qarama-qarshiliklar, turli xil qarashlarning yuz minglab platformalari va millionlab manbalari orqali ta'sir doirasi shiddat bilan kengayib borayotgan mediamuhit sharoitida yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Metodlar. Mazkur maqola muallif tomonidan olib borilayotgan “Raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni shakllantirishning dolzarb masalalari va mexanizmlari” nomli monografik tadqiqotning tarkibiy qismi bo'lib, unda mavzuga oid dastlabki o'rganish, kuzatuv va tahlil natijalari yoritiladi. Maqolada ijtimoiy-empirik metodlar va kontent-tahlildan foydalanilgan, monografik tadqiqot davomida esa, tizimli yondashuv asosida ilmiy-nazariy metodlarga murojaat etiladi.

Ilmiy-ijtimoiy mediamuhitda mazkur masalalarga yo'naltirilgan manbalar talaygina ([1]-[5] va b.) va bu bejizga emas. Chunki, shaxs kamoloti har qanday davrlarda ham uning xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Binobarin, yoshlarimizni to'laqonli yetuk shaxslar sifatida kamolotga erishtirishdek strategik vazifaga milliy miqyosdagi e'tibor jamiyat halovatini va ravnaqini ta'minlovchi strategik omildir. Shunday ekan, shaxs va jamiyatning axborotga oid muhofazasi doirasida bir qancha savollar tug'iladi, ularning ayrimlarida quyida to'xtalamiz.

Muhokama. Mamlakatimiz yoshlari, tabiiyki, oila, turli jamoatchilik, qurshovlar, davralar va mehnat muhitlari qatorida, ta'lim muhitida ham voyaga yetishi va shaxs sifatida shakllanishini inobatga olsak, ta'lim mutasaddilari, xususan, o'qituvchilarning hamda muayyan fanlarning, jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlarimizda ayni axborot xavfsizligi madaniyatini yuksaltirishdagi, mediaimmunitetni shakllantirish va mustahkamlashdagi o'rni nimalarda ko'rinadi? Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalaridan muhokama etayotgan mavzumiz doirasidagi dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilgan qanday o'quv fanlari yoki modullari o'rin olishi kerak? Axborot madaniyati, xususan, axborot xavfsizligi madaniyatini yuksaltirishdek masalaga fan o'qituvchilari qanday yondashishlari kerak va bu boradagi mashg'ulotlarda nimalarga ko'proq urg'u berishlari kerak? Qolaversa, yoshlarimiz orasida axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitet yetarli darajada shakllanmaganligi muammosiga qanday muayyan yechimlar mavjud?

Ta'kidlash joizki, aksariyat ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlaridagi oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalarida mavjud “Axborot xavfsizligi asoslari” va/yoki “Kiberxavfsizlik” fanlarining asosiy predmetlari ro'yxatini shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim milliy manfaatlari boshlab berishi kerak. Chunki, jamiyat va davlat erishgan jamiki moddiy hamda ma'naviyat, xususan, ta'limotlar ham, insonlar uchundir. Davlatimizning, jamiyatimizning va har birimizning hayotiy muhim milliy manfaatlarimiz hamda ularni qondirish yo'lida barpo etilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnologik va boshqa turdagi tizimlarning xavfsizligini ta'minlash masalasi jamiyatimizda axborot madaniyati qay darajada yuksak ekanligiga ham har jihatdan bog'liqdir.

Axborot madaniyati tushunchasini tor ma'noda axborotni izlash, saralash, saqlash, tahlil etishga oid bilim, malaka va ko'nikmalar majmui, deb qarovchi informologik yondashuv mavjud. Bu tushunchaning mazmunini axborotlashtirilgan, tobora raqamlashayotgan

jamiyatda inson hayotiy faoliyatining usuli va inson madaniyati shakllanishi jarayonining tarkibiy qismi, deb kengaytirish mumkin. Axborot madaniyati tushunchasi mazmuniga diqqatni tayinli predmetga jamlay olish, axborotni uning qimmatini oshirish darajasida mantiqiy qayta ishlash, o'z ko'z o'ngida aks etayotgan hodisalarda yangidan yangi qirralarni ko'ra olish kabi zaruriy ko'nikmalar ham kiritilishi mumkin.

Tabiiyki, axborot madaniyati shaxsning ijtimoiy tabiati bilan uzviy bog'liqdir. Shu o'rinda, axborot madaniyati insonning turli tuman qobiliyatlari mahsuli hisoblanadi. Bugungi kun taraqqiyoti nuqtai nazarida ayni yoshlarimizning axborot madaniyati nafaqat aqlli mobil telefonlar va shaxsiy kompyuterlardan, balki, korporativ va global kompyuter tarmoqlari kabi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va neyrotarmoqlardan samarali foydalana olishlarida; turli manbalardan axborotni ola bilish, taqdim eta bilishlarida; axborotlarning katta massivlari ustida tahliliy qayta ishlash ko'nikmalariga egaligida; salbiy axborotlardan himoyalana olish qobiliyatlarida; o'z faoliyat sohasiga oid axborotlar oqimlarining xususiyatlarini, qolaversa, axborotga oid huquq va burchlarini, qonunchilikni qay darajada bilishlarida; umumjahon muloqot tillaridan ayrimlarini o'zlashtirganliklarida; inson xatti-harakati va jamiyat rivojini boshqaruvchi axborot mexanizmlarini tushuna olishlarida namoyon bo'ladi.

Axborotlashtirilgan va raqamli transformatsiyalar sharoitida soniyalar sayin raqamlashayotgan jamiyatda ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lgan personalni, bo'lajak va yosh mutaxassislarni axborotning katta hajmlarini zudlik bilan anglash, qabul qilish va qayta ishlashga tayyorlash, o'z kasbiy faoliyatlariga ilg'or zamonaviy uslub, vosita va texnologiyalarni qo'llay olishga o'rgatish zarur.

Axborot madaniyatiga oid urg'u berilishi kerak bo'lgan jihatlardan biri, bu – hozirda shakllangan jahon hamjamiyatining axborot madaniyati umumsaviyasini belgilovchi asosiy omillar bo'lib, mamlakatlarga tatbiqan ular quyidagilardan iboratdir: ta'lim tizimining holati; jamiyat axborot infratuzilmasining holati; jamiyatni demokratlashtirish darajasi; mamlakatning iqtisodiy qudrati. Demak, mashg'ulotlarda axborot madaniyatining saviyasi bevosita ijtimoiy rivojlanishning muhim tavsiflovchi belgilariga bog'liq ekanini; axborot madaniyatining saviyasi nafaqat jamiyat ahvolining jamlovchi ko'rsatkichi bo'lib, balki jamiyat rivojining eng muhim omili bo'lib xizmat qilishini talabalar ongiga yetkazish darkor. Ayni shu sababli, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ayniqsa, "Axborot xavfsizligi asoslari" fani o'qituvchilari mazkur mavzuga mamlakatimiz talaba yoshlarining axborot madaniyatini yuksaltirishga hissa qo'shish masalasi, deb qarab, bu masalaga ham kasbiy, ham tarbiyaviy burch sifatida yondashishlari kerak bo'ladi.

Axborot xavfsizligi madaniyati masalalari nufuzli xalqaro tashkilotlarning diqqat markazidan o'rin olgani bejiz emas. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 2002-yil 20-dekabrda global kiberxavfsizlik madaniyatini yaratish tamoyillarini tasdiqlovchi rezolyutsiya qabul qilingan. Unga ko'ra, global kiberxavfsizlik madaniyati to'qqizta bir-birini to'ldiruvchi tamoyillar asosida tarkib topadi, bular – voqiflik; mas'uliyatlilik; tezkor munosabat bildirish; etika; demokratiya; xavf-xatarni baholash; xavfsizlikni ta'minlash vositalarini loyihalash va tatbiq etish; xavfsizlikni ta'minlashni boshqarish; qayta baholash, deb nomlanuvchi tamoyillardan iborat [6]. BMT Bosh Assambleyasi tavsiya etgan bu tamoyillarga BMTga a'zo bo'lgan barcha davlatlar o'z fuqarolarining axborot xavfsizligi madaniyatini, xususan, kiberxavfsizlik madaniyatini yuksaltirishda o'zaro uzviy amal qilishlari kerak bo'ladi,

ammo mazkur rezolyutsiya global axborot jamiyatining ayrim ishtirokchi subyektlari tomonidan qanchalik darajada inobatga olinayotgani kundek ravshan.

Mediaimmunitet tushunchasi, bu shaxsning axborotning turli hajmdagi massivlari orqali bevosita va bilvosita taqdim etiluvchi nomaqbul kontentni, ya'ni, negativ ta'sirlarni, tahdidlarni anglay va aniqlay olish hamda ularga berilmaslik va ularning potensial mavjud bo'lishini bilgan holda ularni qabul qilmaslik qobiliyatidir. Shaxs mediaimmuniteti uning tomonidan mediamuhit mahsulotlarini istifoda etishi davomida shakllanadi va rivojlanadi. Mediaimmunitet media tahdidlar va negativ media ta'sirlardan shaxsiy himoyalanişning eng asosiy zaruriy sharti hisoblanadi.

Bizning raqamli asrimizda serqirra axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan trendlari yoshlarga muloqot qilish, o'rganish va o'zini ifoda etish uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Biroq, texnologiyalar va internetning rivojlanishi hamda ularning ta'siri sarhadlarining tobora kengayib borishi barobarida yoshlarning ruhiy-emotsional borlig'iga, kognitiv salomatligi va ijtimoiy moslashuviga yangi tahdidlar ham paydo bo'lmoqda. Zamonaviy yoshlar oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri, bu – raqamli muhitda axborotni tanqidiy idrok etish, ongli ravishda iste'mol qilish va yaratish qobiliyati bo'lgan mediaimmunitetning yetarli darajada shakllanmaganligi muammosi hisoblanadi. Raqamli transformatsiyalar sharoitida ushbu muammo yangi shakllarga ega bo'lib, uni hal qilish ko'plab omillarni hisobga olgan holda e'tiborlilik va ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Mamlakatimiz yoshlarining mediaimmunitetini shakllantirish vazifasi axborotlar xilma-xilligi va mo'l-ko'lligi davrida, ayniqsa, dezinformatsiya, manipulyatsiya va ijtimoiy medianing boshqa nomaqbul ta'sirlari ko'rinishidagi raqamli tahdidlarning kuchayishi davrida milliy miqyosdagi dolzarblikka ega bo'lib, mazkur muammoni hal qilish ta'limga oid va texnologik tadbirlarni o'z ichiga olgan tizimli-kompleks yondashuvni talab etadi.

Natijalar. Demak, raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni shakllantirishning dolzarb masalalari tizimli muammolarni qamrab olgan bo'lib, yuqorida bayon etilganlardan tashqari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat.

1. Axborot yuklamasining haddan ziyodligi muammosi. Bu axborotni qayta ishlashdagi qiyinchiliklarda hamda axborot iste'molining qay tarzda ekanligida namoyon bo'ladi. Yoshlar har doim ham katta hajmdagi ma'lumotlarni lozim darajada filtrlashga tayyor emas.

2. Noto'g'ri, yolg'on, soxta, salbiy "niqobli" ma'lumotlarning tarqalishi. Destruktiv, yovuz niyatli koalitsiyalar, guruhlar, shaxslar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar va internetning boshqa platformalari orqali soxta va buzg'unchi materiallarning tarqatilishi sezgir guruhlar toifasidagi o'spirin va yoshlar uchun o'ta xavflidir. Yoshlarga, ayniqsa, o'spirinlarga axborotlarni va manbalarni oqilona tekshirishni, ularni sinchkovlik bilan tahlil qilishni o'rgatish va uqitirib borish lozim.

3. Ijtimoiy tarmoqlarning kontentni, axborot massivlarini foydalanuvchi qiziqishlariga yo'naltiruvchi algoritmlari. Ulardan ezgu maqsadda ham, qolaversa, bilmaslik va anglamaslik tufayli salbiy oqibatga olib keluvchi tarzda ham foydalanishadi.

4. Yoshlar ruhiy-emotsional holatining atrof muhit ta'sirlariga o'zgaruvchanligidan foydalangan holda atayin salbiy ta'sir ko'rsatishlar. Yoshlar, bu ta'sirlarga eng moyil bo'lgan guruh sifatida, ma'lum mafkuralarni yoki siyosiy pozitsiyalarni mediada va/yoki jamiyatda ilgari surishlari uchun manipulyatsiyaga duchor bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'spirin va

yoshlarimiz ularning sog'ligiga ruhiy-hissiy va fiziologik jihatdan qo'pol aziyat keltiruvchi kiberbulling va firibgarlik kabi jirkanch illatlar ta'siriga tushib qolishlari mumkin.

5. Axloqqa zid, nomaqbul tarkibga ega kontentlarning mavjudligi, tarmoqlarda axloq qoidalariga rioya etilishning nomukammalligi, tartibga solinmaganligi va ko'plab omillar qurshovida buning imkoni yo'qligi. Internetda axloqiy jihatdan qabul qilinishi mumkin bo'lmagan qarashlar, e'tiqodlar va g'oyalarni o'z ichiga olgan ulkan miqdordagi kontent mavjud. Yoshlar tasodifan bunday tarkibga duch kelib, ularga bog'lanib qolishlari mumkin, vaqtida bartaraf etilmagan taqdirda buning tuzatish mushkul bo'lgan oqibatlarini yuzaga keladi.

6. O'spirin va yoshlarning o'z qadr-qimmatini, o'z-o'zini aniqlash bilan bog'liq muammolar. Internet xayoliy tasvirlar va standartlarni yaratadi, bu esa ko'pincha virtual makonda ideallarni va yo'l-yo'riqlarni izlaydigan yoshlarda sog'lom fikr bilan o'zini o'zi qadrlash va o'ziga xoslikni shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi.

7. O'spirin va yoshlarda noaniqlik va tanqidiy refleksiya muammosi. Ma'lumki, raqamli transformatsiyalar sharoitida texnologiyalar, mediamuhit va ijtimoiy hayotda jadal o'zgarishlar sodir bo'ladi, yoshlarda o'zlari uchun qanday tarzda barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish va iste'mol qilinadigan ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lish kabi masalalarda ko'plab noaniqliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Ular yengil fikrlash domiga tushib qolishlari mumkin, ularda axborot gigiyenasi bilan bog'liq qiyinchiliklar turg'un holatga kelib qolishi mumkin.

8. Vaqtdan foydalanish va diqqatni jamlashdagi muammolar. Texnologik qaramlik. Ta'lim olish va mehnat faoliyatida unumdorlikning yo'qolishi. Smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn o'yinlardan ortiqcha foydalanish ta'lim va ishdagi unumdorlikning yo'qolishiga, ularga bog'lanib qolishga va hatto giyohvandlikka olib kelishi mumkin.

9. O'spirin va yoshlarni axborotni tanqidiy idrok etishga o'rgatish masalasiga lozim darajada e'tiborning yo'qligi. Ko'plab mehnat jamoalarida, o'quv yurtlarida, oilalarda tanqidiy fikrlash va media savodxonlikka hatto zaruriy darajada e'tibor berilmaydi. Binobarin, aksariyat yoshlarimiz ma'lumotlarni samarali filtrlashni, ularning ishonchliligini baholashni bilmaydilar. Qolaversa, ko'plab yoshlarimiz har doim ham ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan vaziyat yoki hodisaning kontekstini tushunmaydilar va ko'pincha ma'lumotni qanday ko'rinsa shundayligicha, ya'ni, matnda boshqacha yoki yashirin mohiyat mavjud bo'lishi mumkinligini yoki ma'lumot egalarining manipulyativ maqsadlari bo'lishi mumkinligini hisobga olmagan holda qabul qilishadi. Oqibatda, bunday yoshlarimiz oqilona qarorlar qabul qilish uquviga ega bo'lmay qoladilar.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan muammolar raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni shakllantirishdek strategik vazifaning nafaqat milliy, balkim, global miqyosda dolzarb ekanini ko'rsatib turibdi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun yoshlarda raqamli savodxonlikni shakllantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, zamonaviy raqamli platformalarda sog'lom fikr bilan faol muloqot olib borish qobiliyatini tarbiyalash, axborotni to'g'ri tanlash va ongli ravishda iste'mol qilishni o'rgatishga qaratilgan ta'lim dasturlarini joriy etish, shuningdek, dezinformatsiya, manipulyatsiya va psixologik ta'sirlardan himoya qilishning ijtimoiy va texnologik mexanizmlarini yaratish lozim.

Nafaqat yoshlar orasida, balki, butun jamiyat a'zolarida axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni rivojlantirish va barqarorlashtirishning muhim omillaridan biri, bu –

oilalar, mehnat jamoalari, ta'lim muassasalari va jamiyat a'zolari bilan mazkur yo'nalishda rejali va tizimli tarzda chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. O'rganilayotgan masalalarning muhim tarkibiy yechimlaridan biri, bu – ota-onalarni bolalarining axborotni tanqidiy idrok etishga va mediamuhitdan xavfsiz tarzda foydalanishga o'rgatishdek muhim vazifalarga chorlash va bu jarayonlardagi ishtiroklarini huquqiy asoslar va jamoat nazorati bilan ta'minlashdir.

Raqamli transformatsiyalar sharoitidan kelib chiqqan holda huquqni muhofaza qilish organlari va qonunchilik tashabbusi vakolatiga ega idoralar hamda mutasaddilar mediamuhitdagi dezinformatsiya va manipulyatsiyalarga qarshi kurashishga qaratilgan onlayn faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishlari muhim. Shuningdek, yoshlarni zamonaviy raqamli-kommunikatsiya texnologiyalari va platformalarining salbiy oqibatlaridan himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yaratish ham bugungi kunda davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashning zaruriy huquqiy choralardan biri sifatida qabul qilinishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilamizki, raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni shakllantirish va rivojlantirish masalalari ko'p qirrali bo'lib, ularning yechimlarini topish va amalga oshirish tizimli-kompleks yondashuvni talab qiladi. Mazkur masalalarni samarali hal etish jarayonida, tabiiyki, jamiyat va ta'lim, qonunchilik, madaniyat, ma'naviyat hamda axborot texnologiyalari sohalarining integratsiyasi kerak bo'ladi.

Axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitet insonning alg'ov-dalg'ovli raqamli dunyoda o'zini va qarddonlarini turli xavf, tahdid va qaltisliklardan asrash, yomonni yaxshidan va yaxshini yomondan ajrata bilish, ma'lumotlarni xavfsiz taqdim etish, ishonchli manbalardangina foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish barobarida uning oila, jamoa, jamiyat va vatan oldidagi ijtimoiy mas'uliyatlarni hamda tabiiy burchni chuqur his etish qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

Raqamli transformatsiyalar sharoitida yoshlarda axborot xavfsizligi madaniyati va mediaimmunitetni to'laqonli shakllantirish masalasi esa strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat milliy, balkim, global miqyosda dolzarbdir, shu sababli, har bir ongli shaxs va dunyoning sog'lom fikrli hamjamiyati oldida turgan muhim vazifadir.

Adabiyotlar/ Литература/References:

1. Dautova, R.V. and Belousov, Y.D. "Media immunity as a prerequisite for youth media safety in social networks. "International Research Journal, no. 2(128), Feb. 2023. DOI: 10.23670/IRJ.2023.128.20.
2. Саттарова, Н.И. Проблемы информационной безопасности молодежи цифрового общества. – 2022. [Elektron resurs]: https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/40567/1/978-5-8295-0699-5_2022_031.pdf (Murojaat sanasi: 12.01.2025)
3. Ярутина, С.А. Цифровые технологии в формировании культуры информационной безопасности в молодежной среде: постановка проблемы. – 2019. [Elektron resurs]: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/83655/1/978-5-7996-2941-0_2019_77.pdf?ysclid=m5l3rio0nd274202539 (Murojaat sanasi: 12.01.2025)
4. Формирование и развитие культуры информационной безопасности субъектов образовательного пространства: Сборник трудов / Авторы-составители: В.Г. Мартынов, И.В. Роберт, И.Г. Алехина. – М.: Изд. центр РГУ нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина. – 2024. – 196 с.
5. Nizomova, R.A. Talaba-yoshlarning internet tarmog'idan foydalanishida axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash: muammo va yechimlar // Zamonaviy ta'lim. – 2021. –

- 2 (99). – 29-38 b. <http://uzscite.uz/wp-content/uploads/2021/04/29-38.pdf> (Murojaat sanasi: 18.01.2025)
6. Создание глобальной культуры кибербезопасности. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей ООН, № RES/57/239 от 31.01.2003. [Elektron resurs]: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N02/555/24/PDF/N0255524.pdf?OpenElement> (Murojaat sanasi: 07.01.2025)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).